



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 230 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinovna	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarining psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli	170
Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li	
Innovatsion ta'lim muhitida talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	173
Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati	176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	

Duduqlanish nutq kamchiligini korrektsiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish.....	180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna	
Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования .	184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович	
Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari.....	188
Azimova Nodira Hikmatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari.....	191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati.....	194
Burkhanova Sabo Tulanovna	
Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari	197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna	
Ta'lim tashkilotlarida sifadni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	200
Abdurashit Karimovich Avliyakulov	
Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish.....	204
Daliyeva Eliza Zokir qizi	
Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning refleksiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish	207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari.....	210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi	
ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish	216
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье	219
Гулру Тургунова	



INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING KASBIY MULOQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

"Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Innovatsion ta'lim muhiti sharoitida talabalarning kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar hamda integrativ yondashuvlar asosida talabalarda professional muloqot madaniyatini shakllantirishning samarali yo'llari yoritiladi. Shuningdek, kasbiy muloqot kompetensiyasining tarkibiy komponentlari, rivojlanish bosqichlari hamda o'quv jarayonida uni baholash mexanizmlari ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim muhiti, kasbiy kompetensiya, muloqot kompetensiyasi, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta'lim.

Abstract: The pedagogical and methodological foundations for developing students' professional communication competence in an innovative educational environment are analyzed. Effective approaches to the formation of professional communication culture among students are highlighted through the use of digital technologies, interactive methods, and integrative approaches within the modern educational process. In addition, the structural components of professional communication competence, its stages of development, and the mechanisms for assessing it in the learning process are examined from a scientific and pedagogical perspective.

Key words: innovative educational environment, professional competence, communication competence, pedagogical technologies, interactive methods, digital education.

Аннотация: Рассматриваются педагогические и методические основы развития профессиональной коммуникативной компетенции студентов в условиях инновационной образовательной среды. Освещаются эффективные пути формирования культуры профессионального общения у студентов на основе использования цифровых технологий, интерактивных методов и интегративных подходов в современном образовательном процессе. Также анализируются структурные компоненты профессиональной коммуникативной компетенции, этапы её формирования и механизмы оценки в процессе обучения.

Ключевые слова: инновационная образовательная среда, профессиональная компетенция, коммуникативная компетенция, педагогические технологии, интерактивные методы, цифровое образование.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'y-moqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis tayyorlash jarayoni faqatgina kasbiy bilim va ko'nik-malarni shakllantirish bilangina cheklanib qolmasdan, balki talabalarda kasbiy faoliyat jarayonida samarali muloqot olib borish, hamkorlik qilish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish hamda ijtimoiy mosla-shuvchanlik kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishni ham taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, innovat-sion ta'lim muhiti sharoitida talabalarning kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali talabalarning kommunikativ faolligi, kasbiy tafakkuri va ijtimoiy tajribasi sezilarli darajada kengayadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy muloqot kompetensiyasi shaxsning ijtimoiy faoliyati va kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Kommunikativ kompetensiya nazariyasining ilmiy asoslari dastlab D. Hymes tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, olim kommunikativ kompetensiyani shaxsning til birliklarini bilishi bilan bir qatorda ularni



muayyan ijtimoiy vaziyatlarda maqsadga muvofiq va samarali qo'llay olish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuv muloqot jarayonining nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy jihatlarini ham qamrab olishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, shaxs rivojlanishining ijtimoiy tabiatini asoslab bergan L. S. Vygotsky sotsiomadaniy nazariyasida ham bilim va ko'nikmalar, jumladan, kommunikativ kompetensiyalar insonlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlik jarayonida shakllanishi ta'kidlanadi. Olimning fikriga ko'ra, shaxsning intellektual va ijtimoiy rivoji ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida yuzaga keladi, bu esa ta'lim jarayonida kommunikativ faoliyatni tashkil etishning muhimligini ko'rsatadi.

Ta'lim natijalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida baholash masalalarida B. Bloom tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim maqsadlari taksonomiyasi ham muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu taksonomiya ta'lim jarayonida bilim, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash kabi bosqichlarni izchil rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki kommunikativ faoliyatga oid amaliy ko'nikmalarini ham shakllantirish imkonini beradi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda kreativ fikrlashni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, S. Bo'ltakov va H. Begaliyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish talabalarning mustaqil fikrlashi, muloqot faolligi va muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Shuningdek, S. X. Bo'ltakovning ilmiy ishlarida sivilizatsion pedagogik tizimlarning shakllanish bosqichlari hamda ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinib, bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlar muhim o'rin tutishi ta'kidlangan. Olimning tadqiqotlarida pedagogik tizimlarni modernizatsiya qilish jarayonida interfaol metodlar, kreativ faoliyat hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari alohida e'tibor qaratilgan.

Shu bilan birga, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning mustaqil fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi ko'rsatib o'tilgan. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasiga oid tadqiqotlarda ham talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorligini ta'minlashda kommunikativ kompetensiya muhim tarkibiy komponentlardan biri sifatida talqin etiladi.

Innovatsion ta'lim muhiti tushunchasi ta'lim jarayonini tashkil etishda yangi pedagogik texnologiyalar, raqamli platformalar, interfaol metodlar, integratsiyalashgan fanlararo yondashuv hamda moslashuvchan o'quv modellariga tayangan holda shakllantiriladigan zamonaviy ta'lim tizimini ifodalaydi. Bunday muhitda o'quv jarayonining raqamlashtirilganligi, talabani faol subyekt sifatida ishtirok etishi, individual ta'lim trayektoriyasining mavjudligi, jamoaviy hamda loyiha asosidagi faoliyatga keng imkoniyat yaratilishi va ochiq axborot-ta'lim resurslaridan samarali foydalanish kabi muhim xususiyatlar namoyon bo'ladi. Mazkur muhitda o'qituvchi an'anaviy bilim beruvchi roldan ko'ra ko'proq maslahatchi, fasilitator va tashkilotchi sifatida faoliyat yuritadi. Talaba esa bilimlarni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki ularni mustaqil izlanish, muloqot va tajriba orqali egallovchi faol subyektga aylanadi. Innovatsion ta'lim muhiti sharoitida talabalarning shaxsiy rivojlanishida ijtimoiy o'zaro ta'sirning o'рни alohida ahamiyat kasb etadi, chunki muloqot va hamkorlik jarayonida bilimlar almashinuvi yuz beradi hamda kasbiy faoliyatga oid muhim kompetensiyalar shakllanadi.

Kasbiy muloqot kompetensiyasi shaxsning kasbiy faoliyat jarayonida hamkasblar, rahbarlar, mijozlar hamda boshqa subyektlar bilan samarali, madaniyatli va maqsadga yo'naltirilgan muloqot olib borish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetensiyaning tarkibiy tuzilmasi bir nechta o'zaro bog'liq komponentlardan iborat bo'lib, ular motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlarni qamrab oladi. Motivatsion komponent talabani kasbiy muloqotga bo'lgan ehtiyoji, ijobiy munosabati hamda kasbiy muvaffaqiyatga intilishi bilan bog'liq bo'lsa, kognitiv komponent kasbiy muloqot qoidalari, nutq madaniyati, professional terminologiya va ijtimoiy-psixologik bilimlar majmuini o'z ichiga oladi. Operatsion-faoliyat komponenti kasbiy vaziyatlarda muloqotni rejalashtirish, suhbat olib borish, bahs yuritish, jamoada ishlash hamda nizoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini qamrab oladi. Refleksiv komponent esa talabani o'z muloqot faoliyatini tahlil qilish, yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali o'z ustida ishlash qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu komponentlarning uyg'un rivojlanishi natijasida talabani kasbiy muloqot kompetensiyasi yetarli darajada shakllanadi hamda uning kelajakdagi professional faoliyatida samarali muloqot olib borish imkoniyatlari kengayadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida talabalarning kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga oid ma'lumotlarni olish va tahlil qilish uchun bir qator ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi. Avvalo, muammo doirasidagi ilmiy manbalar, pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlil qilinib, mavzuning nazariy asoslari o'rganildi. Empirik ma'lumotlarni to'plash jarayonida kuzatish, so'rovnoma, suhbat va pedagogik tajriba metodlari qo'llanildi. Talabalarning kasbiy muloqot kompetensiyasi darajasini aniqlash maqsadida diagnostik so'rovnomalar hamda baholash mezonlari ishlab chiqildi va amaliyot jarayonida sinovdan o'tkazildi. Shuningdek, innovatsion ta'lim



muhitida tashkil etilgan mashg'ulotlar davomida talabalarning muloqot faolligi, hamkorlik ko'nikmalari va fikrni ifodalash darajasi muntazam kuzatib borildi. Olingan natijalar qiyosiy va tizimli tahlil usullari orqali umumlashtirildi hamda statistik qayta ishlash metodlari yordamida tahlil qilindi. Natijada talabalarning kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar aniqlanib, ularning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalarda kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ta'lim muhitida kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish loyiha asosida o'qitish texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish, raqamli platformalar asosida muloqotni tashkil etish hamda integrativ mashg'ulotlar kabi pedagogik yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Loyiha asosida o'qitish jarayonida talabalar muayyan muammo ustida jamoaviy ishlash jarayonida o'zaro muloqot qiladi, kelishuvga erishadi, o'z fikrini asoslab bera oladi hamda taqdimot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda esa talabalarda kasbiy fikrlash, bahs-munozara olib borish hamda o'z pozitsiyasini himoya qilish qobiliyatlari shakllanadi.

Kasbiy muloqot kompetensiyasini baholash jarayonida talabalarning kasbiy nutq madaniyatiga rioya qilish darajasi, muloqotda faol ishtirok etishi, jamoada ishlash qobiliyati, muammoli vaziyatlarda konstruktiv muloqot olib borishi hamda fikrni aniq va ravon ifodalash kabi mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Baholash jarayonida reyting tizimi, portfoliolar, loyihaviy ishlar, refleksiv kundaliklar hamda taqdimotlar samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar ta'lim natijalarini kompetensiyaviy asosda baholash g'oyasiga mos keladi. Bu jarayonda ta'lim natijalarini tizimli rejalashtirish masalalarida Benjamin Bloom tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiya tamoyillari muhim metodik asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida tajriba-sinov ishlari oliy ta'lim muassasalarida bir necha bosqich asosida tashkil etilishi mumkin. Dastlab diagnostik bosqichda talabalarning kasbiy muloqot kompetensiyasining boshlang'ich darajasi aniqlanadi. Keyingi bosqich – shakllantiruvchi bosqichda innovatsion mashg'ulotlar, treninglar hamda interfaol darslar tashkil etiladi. Yakuniy bosqichda esa amalga oshirilgan ishlar natijalari tahlil qilinadi hamda o'zgarishlar umumlashtiriladi. Shakllantiruvchi bosqichda vebinarlar, onlayn munozaralar, jamoaviy loyiha ishlari va rolli o'yinlar orqali talabalarning real muloqot muhiti yaratiladi. Natijada talabalarda professional muloqot madaniyati, mas'uliyat va hamkorlik ko'nikmalari rivojlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion ta'lim muhiti sharoitida talabalarning kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy oliy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning nafaqat kasbiy bilimlarini, balki ularning muloqot madaniyati, jamoada ishlash qobiliyati hamda professional moslashuvchanligini ham rivojlantiradi. Shuningdek, kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini tizimli tashkil etish, uning tarkibiy komponentlarini izchil shakllantirish hamda baholash mexanizmlarini takomillashtirish orqali bo'lajak mutaxassislarning raqobatbardoshligini oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hymes D. Communicative competence. – London: Academic Press.
2. Vygotsky L. S. Mind in Society. – Cambridge: Harvard University Press.
3. Bloom B. S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman.
4. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent.
5. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent.
6. Bo'ltakov S., Begaliyeva H. Ta'lim jarayonida kreativ fikrlashning ahamiyati // Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – № 9. – С. 129–132.
7. Bo'ltakov S. X. Sivilizatsion pedagogik tizimlarni shakllantirish bosqichlari // Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – С. 262–265.
8. Bo'ltakov S. X. Practical aspects of using civilized pedagogical systems in the training of future primary school teachers // Journal of Innovation, Creativity and Art. – 2023. – Т. 2. – № 3. – С. 71–73.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.